

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагвевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЈЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195




To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087375>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqining ardoqli shoiri Abdulla Oripov hamda qoraqalpoq she'riyatini yulduzi Ibrayim Yusupov she'riyatidagi mushtarak obrazlar haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan bo'lib, bir-birga qon-qardosh ikki xalq ijodkorlarining she'rlari tahlilga tortilgan. Har ikki shoir tabiatga chuqur badiiy va insoniy nigoh bilan qaraydi. A. Oripov uchun tabiat - ruhiy yuksalish va falsafiy mushohada maydoni bo'lsa, I. Yusupov uchun u - ogohlik, millat dardi va tabiatni asrashga da'vatdir. O'zbek va qoraqalpoq xalqining atoqli ijodkorlari ijodidagi badiiy yaqinlik va o'ziga xoslik adabiyotda peyzaj tasviri misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. O'zbek she'riyati, qoraqalpoq adabiyoti, lirika, obraz, obrazlilik, badiiylik, milliylik, mushtaraklik, peyzaj, lirik qahramon.

ABSTRACT

This article reflects the ideas about common images in the poetry of the honored poet of the Uzbek people Abdulla Oripov and the star of Karakalpak poetry Ibrayim Yusupov, and analyzes the poems of the creators of two blood-brotherly peoples. Both poets look at nature with a deep artistic and humanistic gaze. For A. Oripov, nature is a field of spiritual uplift and philosophical observation, while for I. Yusupov it is an awareness, a national pain and a call to preserve nature. The artistic closeness and originality in the work of outstanding creators of the Uzbek and Karakalpak people are revealed in the example of landscape depiction in literature.

Keywords. Uzbek poetry, Karakalpak literature, lyrics, image, imagery, artistry, nationality, commonality, landscape, lyrical hero.

АННОТАЦИЯ

В статье отражены идеи об общих образах в поэзии заслуженного поэта узбекского народа Абдуллы Орипова и звезды каракалпакской поэзии Ибраима Юсупова, проанализированы стихотворения творцов двух кровно-братских народов. Оба поэта смотрят на природу глубоким художественным и гуманистическим взглядом. Для А. Орипова природа — это область духовного подъема и философского созерцания, а для И. Юсупова — это осознание, национальная боль и призыв к сохранению природы. Художественная близость и своеобразие в творчестве выдающихся творцов узбекского и каракалпакского народов раскрываются на примере изображения пейзажа в литературе.

Ключевые слова. Узбекская поэзия, каракалпакская литература, лирика, образ, образность, художественность, народность, общность, пейзаж, лирический герой.

Zamonaviy lirik she'riyatda peyzaj (tabiat manzarasi) tasvirining badiiy vosita sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. U endilikda shunchaki tasviriy element emas, balki poetik matnning ichki ma'no qatlamlarini ochish, lirik qahramonning kechinmalarini ifodalashda markaziy komponentga aylanmoqda. Bu hol ayniqsa Abdulla Oripovning ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir peyzajni tasvir yaratish vositasigina emas, balki ruhiy holatni aks ettiruvchi, ichki olam bilan uyg'unlashgan badiiy semantik konstruktsiya sifatida qo'llaydi.

A. Oripovning "Saron" she'rida yozning eng issiq davri – saraton chog'i manzarasi o'ta realistik va ramziy timsollar bilan boyitilgan. "Saron chog'i zarra shamol yo'q, tutlar kovagida mudrar g'urraklar" satrlari orqali shoir avvalo jismoniy og'irlikni – issiq, harakatsizlik, bosim va toliqish holatini tasvirlaydi. Bu yerda tabiat obrazlariga insoniy holat yuklanadi – "mudrash" fe'li orqali g'urraklar ham insondek charchagan, turg'un holatda gavdalantiriladi. Bu kabi poetik usul – tabiatni jonlantirish, unga psixologik ahamiyat berish – kechinmani obrazli ifodalashning muhim tamoyillaridan biridir.

Shoir lirik qahramon sifatida bevosita kuzatuvchi bo'lib qolmaydi. U o'zini voqea markaziga olib kiradi:

"Ko'rdim-ku tepangda o'zin yo'qotib,
Hayratdan lol qotib qolganin oftob..."

Bu satrlar shoirning ichki qayg'u, mehr va hamdardlik tuyg'ularini anglatadi. Dehqonning fidoyiligi, o'zini unutib, atrofdagi borliq – dalaga berilishi aslida insoniy buyuklikning ramzidir. She'rdagi oftob obrazi ham ikki qirrali: bir tomondan – tabiat hodisasi, ikkinchi tomondan – shafqatsiz sinov timsolidir.

Shoir dehqon mehnatini tasvirlar ekan, peyzajni faqat estetik vosita emas, balki axloqiy-estetik baho mezoniga aylantiradi. U "butun olam go'yo ulkan doshqozon" degan satrlar bilan tabiat holatini umumlashtiradi va og'ir mehnat jarayonini yanada kuchaytiradi. Doshqozon – bu nafaqat jazirama issiqning, balki ijtimoiy bosim, hayotiy sinovlar, tinimsiz kurash ramzidir.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, bu yerda peyzaj tasviri ikki darajada xizmat qiladi.

Birinchidan, tabiatning obrazli ifodasi orqali lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy dunyosi ochiladi. Shoir ichki ruhiyatni tashqi muhit bilan uyg'unlashtirishga erishadi. Tabiat holati lirik holatni aks ettiradi – bu "psixologik peyzaj" deb ataladi.

Ikkinchidan, tabiat detallari va holatlari ramziy ifodaga ega. Masalan, doshqozon – bu mehnat qozoni, ammo u o'z mehnatkashini ham "qaynatayotgan" bir muhitga aylangan. Bu esa hayotiy paradoksni ochib beradi: dehqon halol mehnat qiladi, ammo mehnatga yarasha orom olmaydi. Shoir bu orqali hayotiy haqiqatni ko'rsatadi: mehnatkor insonlar — jamiyat tayanchi bo'lsa-da, ular ko'pincha yetarlicha qadrlanmaydi. Aynan mana shu ruhiy qarama-qarshilik, ichki iztirob, ichki norozilik ohangini poetik tasvirlar orqali sezdiradi. Misralarda dehqonning lablari qaqragani, ammo u ishni to'xtatmagani – bu fidoyilik, sabr, va bir oz fojialilikni bildiradi. Shoir achinish uyg'otadi, ammo achinishda shunchaki rahm emas, balki ulug'lash, qadr berish ham mujassam.

She'rning botiniga razm salsak A. Oripovning hayotiy falsafasi yashirin – bu o'zbek xalqining mehnatga bo'lgan munosabati, mehribonlik, sadoqat va bardosh timsolidir. U bu ruhiyatni peyzaj obrazlari orqali berish orqali poetik badiiyatni hayotiy haqiqat bilan uyg'unlashtiradi. Natijada, "Saron" she'ri o'zbek zamini, uning mehnatkash farzandlari haqida yozilgan epik-lirik badiiy hujjatga aylanadi.

Adabiyotning eng yuksak maqsadi – bu insoniyatning umumiy dardini, tarixiy-madaniy va ma'naviy jarayonlarini badiiy obraz orqali anglash, zamondoshga yurakdan ta'sir qilishdir. Abdulla Oripovning "Qo'riqxon" she'ri aynan ana shunday badiiy-falsafiy talqin namunasi bo'lib, insonning tabiat oldidagi javobgarligini, axloqiy-ma'naviy pozitsiyasini teran ichki kechinmalar orqali yoritadi. She'rda tabiat – shunchaki landshaft emas, balki jamiyatning vijdoni, axloqiy mezoni sifatida talqin etiladi. She'rda qo'riqxon oddiy geografik joy emas. U – inson tomonidan vayron qilingan, ammo baribir saqlab qolishga uringan tabiatning so'nggi istehkomidir. Bu joyda nodir o'simliklar, noyob hayvonlar jamlangani – ularga e'tibor kuchayganidan emas, balki ularning tabiiy yashash muhiti yo'q qilinganidan dalolat beradi. Demak, qo'riqxonaning o'zi – ekologik halokatning poetik belgisi, bu

joyning mavjudligi – insoniyatning axloqiy tanazzuli natijasi sifatida ko‘rsatiladi. U mo‘jiza emas – fojining tirik guvohidir.

Munis mavjudodga mehr va shafqat bu,
Bu inson qalbida porlagan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig‘ tuyg‘u.
Har nechuk qirilib ketmas tabiat.

Shoir “bobolardan qolgan noyob bu tortiq” – iymon, vijdon va latif hislarini asrashga chaqirishi bejizga emas. Chunki, “xudbin va dilozor” kimsaning og‘zi qon yirtqichdan” farqi yo‘q. Insofli odam tabiatga vijdonan munosabatda bo‘lsa, o‘z xatti-harakatlarining oqibatini o‘ylasa, sof qalb sohiblarining bari zamin hammamiz uchun yagona go‘sha ekanligini anglasa, olam go‘zalliklari bezavol bo‘lardi. A.Oripov – inson bilan tabiat o‘rtasidagi mutanosiblikning nozik qirralarini ko‘ra olgan ijodkor. Agar insonlarga xos ezgu tuyg‘ular-u oliyjanob hislatlar “tojdor turna kabi kamyob bo‘lib ketmasa” yoki toshyurak kishilar vajohatining “otashiga duch kelgan noloyiq misol” kuyib kul bo‘lmasa, “yovuzlikdan zada bo‘lgan” dunyo ham, inson qalbi ham ozor chekmasdi deya hayqiradi shoir. Uning:

To‘kayga o‘t ketsa yongay bus-butun.
Adolat borliqqa yolg‘iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun,
Yovuzlikdan zada qo‘riqxonadir, -

degan misralari insoniyatning tabiat oldidagi burchi va mas‘uliyati, tabarruk zamin kelajagiga ishonch sifatida baholanishga loyiq.

Xuddi shunday tabiatning betakror tasvirni qoraqalpoq xalqining ardoqli farzandi I.Yusupov she‘riyatida ham kuzatish mumkin. Shoirning “Tallar japıraq tókti, urıqlar quwrap” nomli she‘rida tabiatga kuz mavsumining kirib kelishini muxlislar ko‘z oldida musavvir kabi tasvirlaydi. Kuz tasvirini daraxt barglarining qurib to‘kilishi tasvirini bilan boshlaydi va otquloqlarning shamolda qimirlashi-yu, qarq‘alar ovozinining bevaqt eshitilishi orqali fikrlarini rivojlantiradi. Tasvirni yanada kuchaytirish maqsadida shoir osmon-u falakni bulutlar egallashini “osmonning chiroyi qochadi” deya ta‘kidlaydi.

Tallar japıraq tókti, urıqlar quwrap,
Tek te atqulaqlar jawdırasadı.
Azan-ğazan ala qarğalar shuwlap,
Aspan qumaytlanıp, sıyqı qashadı.

Istedodli ijodkor yan bir she‘rida o‘z tilaklarini tabiat tasviri orqali ajoyib o‘xshatishlar bilan ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. Lirik qahramon, nasibang xuddi qishgi daladek oq va beg‘ubor bo‘lsin deya ta‘kidlar ekan, ertalabki oppoq qorga tulkining ag‘nab o‘ynashi tasvirini lirik satrlarda yanada kuchli beg‘uborlikni tasvirlashni istaydi. Natijada sovuq kunning qahri nurga aylangani kabi, ko‘ngling toy minib chopqinlayotgan boladek bo‘lsin deya o‘z fikrini ifodalaydi.

Nesibeń aq bolsın qısqı daladay:
Qızıl túlki awnap azanğı qarğa,
Ayaz kún qáhári shağılısıp nurgá,
Kewliń - tay shapqılap shıqqan baladay.

Shoir she‘rning keyingi satrlarida ham yana tabiat hodisalariga murojaat qilgan holda ajoyib tasvirni ifodalashga harakat qiladi. Ya‘ni ko‘ngling xuddi yozgi daladek issiq bo‘lsin, uning taftida atrofdagilar isinsin dyedi.

Kewliń issı bolsın jazğı daladay:
Árman teńizindey buldırap sağım,
Suw hám sayanı eń sağınar wağıń,
Tún - ráhát. Juldızlar parlap janadı-ay.

Inson qo‘llari tabiatga do‘st bo‘lib, uning nafis go‘zalliklarini avaylab asrashi, qalb to‘rida eng aziz tuyg‘ulari singari, e‘zozlashi moddiy boyliklarini ko‘paytirishi, tabiatning qo‘li bilan yaratilgan serjilo obidalarga sayqal berishi kerak. Ayni vaqtda bu qo‘llar shu qadar shavqatsiz qurolga aylanishi ham mumkin, chunki mehrsiz tuban odam qo‘li olam go‘zalliklarini barbod qilishga ham

qodirdir. Keyingi yillarda insoniyatning o'ta qo'pol aralashuvi natijasida tabiatdagi asriy muvozanatning buzilishiga ham aslida shu yana shu qo'llar sababchi.

Bu yondashuv, O.Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, "estetik og'riq" holatini yaratadi - ya'ni she'r o'quvchini tabiatning go'zalligidan zavqlantiribgina qolmay, uni yo'qotish xatarini anglatish orqali ogohlikka chorlaydi.

Ijodkor milliy ohanglar bilan yaratgan ushbu misralarda faqatgina vatanga muhabbat, uni boridek qabul qilish emas, balki insoniy fazilatlar sabr-toqat, mehnatsevarlik va asrimizning eng og'riqli muammosi, insoniyatning eng ojiz nuqtasi ekologiya muammosiga ham munosabat bildirgan.

Toyib sekirib so'n biraq ta,
Hádden asıp ketsek kerek.
Bul ádiwli topıraqqa
Kóp qiyanet etsek kerek.
Qayta qurıw aynasınan
Qarap kórsek ózimizdi,
Juldız izlep ay qasınan,
May basıptı kózimizdi.

Ona sayyoramiz insonning yagona qo'nimgohi. Yer faqat bitta. Koinotda sayyoralar bisyor, ammo inson zotining nainki inson butun tirik organimzlarning (o'simlikdan tortib hayvonot olamigacha) yashay oladigan, hayot kechirishga qodir manzili faqat yer. Agar biz uyimizni yo'qotsak yangisini quramiz, do'stlarimizdan ayrilsak yangi do'st topa bilamiz, ota-onamizdan judo bo'lsak og'ir bo'lsa ham yashashda davom qilamiz. Yerni yo'qotsakchi!? Yashay olamizmi, hayot davom etadimi? Qayerda va qanday yashaymiz? Axir oyog'imizni qo'yishga bir qarich yer ham yo'qku koinotda! Shu bois ham muallif "Te'iz qashqan menen bizden, Biz qashpaymız úyimizden" deydi. Chunki ona tuproq hamma narsadan muqaddas, ona zamin inson uchun yagona.

Birewlerge asqar biyik
Taw berse de jer bermegen.
Maral mańırap, aqsha kiyik
Juwırǵanday shól bermegen.
Bir jerler xosh tábiyatlı,
Qırǵawıldın qanatınday.
Biraq jemisi joq tatlı
Gulabı, tor nabatımday.

I.Yusupov o'z tuqqan yeriga shunchalar oshufta shunchalar maftunki hatto suv kelmagan, sho'rlab yotgan yerlariga ham tengsiz muhabbati bor. Yuksak va viqorli tog'larga havas qilmaydi, chunki ularga "Maral mańırap, aqsha kiyik, Juwırǵanday shól bermegen". Shu cho'l muallif uchun vatan timsoli, sahroning kengliklari qadar qalbidan buyuk sadoqat, cho'lning olovdek tafti qadar qaynoq muhabbati bor yurtiga. "Eń bay eller mútáj hátte, Boyan tamır, gazli kánnen" deya yurtiga faxr-iftixorini izhor etadi. Kimlardir osmono'par binolari bilan, kimlardir samolarga tutash sharsharalari bilan maqtansa, qoraqalpoqning qalbi suvdek pokiza shoiri "Boyan tamır, gazli kán" lari bilan g'urur tuyadi. Qalbidagi muhabbati ham vatan tuproqlari kabi poyonsiz va xokisor, tuzli ammo shifobaxsh....

Siz benen biz mákan qılǵan
Bul topıraqta bári-de bar.
Egin ekseń órre turǵan,
Shóplerinde dári-de bar.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov va Ibrayim Yusupov - zamonaviy o'zbek va qoraqalpoq she'riyatining yirik namoyandalari bo'lib, har ikkala shoirning ijodida tabiat obrazlari muhim badiiy -estetik vazifa bajaradi. Ammo bu obrazlar har bir shoirda turlicha maqsad va mazmun bilan talqin etilgan. Umumiy jihatdan, ular tabiatni shunchaki manzara emas, balki inson taqdiri, vatan tuyg'usi, ma'naviy yuksalish va ijtimoiy mas'uliyat bilan bevosita bog'liq badiiy timsol sifatida tasvirlaydilar.

Abdulla Oripov uchun tabiat - ilohiy tartib, mavjudotlar uyg'unligi va inson hayotining muqaddas manbai sifatida gavydalanadi. U tabiatni Yaratganning qudrati, go'zalligi va hayotiy hikmatlar manbai sifatida ko'radi. A.Oripov she'riyatida tabiat obrazlari ko'pincha falsafiy va diniy-estetik mazmunga ega bo'lib, u orqali insoniy kamolot, hayot mazmuni va ruhiy barkamollik talqin etiladi.

Ibrayim Yusupov esa tabiatni asosan ijtimoiy-ruhiy va ekologik kontekstda tasvirlaydi. Uning asarlarida tabiat - insoniyat xatolari, loqaydligi, ma'naviy tanazzulining guvohi va jabrdiydasi sifatida talqin qilinadi. Orol, sho'r yer, qurigan daryo kabi obrazlar orqali I.Yusupov inson va tabiat o'rtasidagi munosabatdagi mas'uliyat masalasini ko'taradi. Uning tabiat tasvirlari hayotiy dramatism va ogohlik ruhiga to'la bo'lib, u o'quvchini ekologik muammolar ustida jiddiy o'ylashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
2. G'afurov I. Lirikaning yuragi. –Toshkent, 1982.
3. Jumayev N. Poetik tasvirda peyzajning roli. – Toshkent, 1985.
4. Usarova L. Abdulla Oripov she'riyatida milliy ruh ifodasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-T., 2020
5. Zaripov A. Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-T., 2024
6. Oripov.A. 2018. Men nechun sevaman O'zbekistonni?. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Oripov A. 2018.Yangi she'rlar.Toshkent: "O'zbekiston".
8. Yusupov.I. 1999. O'mir sag'an ashiquan. No'kis: Qaraqalpaqstan
9. Юсупов И. 1987. Аласатлы дунья бул.Нукус. Қарақалпқғитан.1987
10. Tajibayeva L.Yangi o'zbek she'riyati genezisi va taraqqiyot tamoyillari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ..diss.-Urganch., 2023

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000